

YOSHLAR TA'LIM MIGRATSİYASIGA İJTİMOİY-PSİXOLOGİK YORDAM BERİSH MASALALARI.

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri
Beknazarova Madinaxon Abdumalik qizi.*

Xorijiy ish beruvchilarning kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlariga asosan professional ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan kasblar (mutaxassisliklar) hamda chet tillarini bilish darajasiga qo‘yilgan talablar bo‘yicha buyurtmalarni shakllantirish; Xorijida ishslash istagi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini ish beruvchilar tomonidan tanlab olish jarayonlarini tashkil etish; O‘quv kurslari tashkil etiladigan professional ta’lim muassasalarini xorijiy mamlakatlarning qonunchiligi, madaniyati va muassasalari va xorijiy ish beruvchilar o‘rtasidagi hamkorlikni ta’minalash hamda xorijiy mutaxassislarni ta’lim ta’lim jarayoniga jalb qilish; Kasbiy ko‘nikmalar bo‘yicha treninglar va seminarlar o‘tkazish hamda yoshlarning xorijiy kompaniya yoki tashkilotlarda amaliyot va stajirovkalar o‘tashini tashkil etish kabi chora-tadbirlar olib borilayotgani va masalalar qonunchilik xujjalari bilan belgilab qo‘yilgani, O‘zbekistonda yoshlar ta’lim migratsiyasiga katta e’tibor berilayotganining dalilidir. Bu masalar bilan alohida markaz ham shug‘ullanadi. Markaz o‘z faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmasdan bevosita Agentlik rahbarligida amalga oshiradi;

Markazning 16 shtat birligini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar Agentlik tomonidan ko‘rsatilgan pulli xizmatlardan tushgan mablag‘lar xisobidan amalga oshiriladi; Markaz ushbu qarorga muvofiq tashkil etiladigan o‘quv kurslari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Bunda professional ta’lim muassasalarini chet tillariga o‘qitish bo‘yicha yuqori malakali kadrlar bilan ta’minalash uchun O‘zbekiston davlat Jahon tillari Universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik Universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti hamda hududlardagi davlat pedagogika oliy ta’lim muassasalari rektorlari mas’ul va shaxsan javobgar hisoblanadi va ushbu vazifani amalga oshirish ular faoliyatini samaradorligini baholashning asosiy mezonlaridan biri etib belgilanadi;

Professional ta’lim muassasalariga xorijiy davlatlar ta’lim tashkilotlari bilan birgalikda qo‘shma ta’lim dasturlarini joriy qilish hamda ta’lim dasturining tegishli qismlarini, shu jumladan, o‘quvchilarning amaliyotini xorijiy hamkor tomonidan tavsiya etilgan muassasa va tashkilotlarda tashkil etishga ruxsat etiladi.

Hukumat qarori bilan yoshlar ta’lim migratsiyasiga ijtimoiy yordam, balki psixologik yordam ham berilmoqda. O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi huzuridagi Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi etib qayta tashkil etildi. Ta’limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar

uchun muloqat maydoni sifatida faoliyat yuritish Markaz faoliyatning asosiy yo‘nalishi etib belgilanadi.

O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi, Maktabgacha ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “oila” ilmiy-amaliy markazining O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Markaziy Kengashi qoshidagi Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi negizida ta’limning barcha bosqichlarida psixologik xizmat ko‘rsatuvchi tuzilmalar uchun muloqot maydoniga aylanadigan, tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda ish olib boruvchi “Oila” ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qoshida Yoshlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish Respublika markazi etib qayta tashkil etish to‘g‘risidagi takliflari qullab-quvvatlandi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. G‘oziyev E. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi) o‘quv qo‘llanma-Toshkent, “O‘qituvchi” 1994.
2. Sh. Xalilova “Talimda boshqaruv psixologiyasi” Toshkent-2011.
3. Alimov Sardor “Aholi migratsiyasi ijtimoiy- axloqiy muhit transformasiyasi